



**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TA'LIM -TARBIYA SIFATINI
OSHIRISHNING MUHIM JIHLTLARI**

Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti 3-bosqich talabasi
Tohirjonova Humora
Humora16042004@gmail.com

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15226792>

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarning yosh guruhga ajratish ularda talim sifatini yanada oshirish, bolalarni mehnatga, bilim olishga, o'yinga maqsadli o'rgatish haqida gap ketadi. Talim va tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish haqida muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, mehnat faoliyati, bilim olish, didaktika, ta'lim sifati, tarbiyachi, bola, zamonaviy o'quv materiallari.

Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalashda yoshlarni intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish va ularning har tomonlama rivojlangan shaxs etib voyaga yetkazish – davlatimiz siyosatini ustivor yo'nalishga aylangan. Mamlakatimizda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida bir qator qonunlar va qonun osti hujjatlar qabul qilingan.

Ilk yoshdagi bolalarning faolligi va mustaqilligi bevosita katta odamning ishtiroki va ta'siri ostida ro'y bersa, 4-6 yoshli bolalar xilma-xil faoliyatga tobora mustaqil, o'z xoxishlariga ko'ra qo'shiladilar, bunda ongning roli oshadi va ba'zan ijodiy xususiyatga ega bo'ladi. Ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, maktabgacha tarbiya yoshida yetakchi bo'ladigan o'yin faoliyatida maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy, bilish faolligi rivojlanadi. Tarbiyachilar rah-barligidagi o'yinlar chog'ida bolalar turli harakat usullarini, buyumlar, ularning xususiyatlari va belgilari to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtiradilar. Bolalar makon, vaqt munosabatlarini, o'xshashlikka va bir xillikka oid aloqalarni anglab yetadi-lar, tushunchalarni egallaydilar. harakatli o'yinlar harakatlarning rivojlanishiga, makonda yo'l-yo'riq topishga yordam beradi. Birgalikdagi o'yinlarda bolalar odamlar o'rtasidagi munosabatlarni, harakatlarni muvofiqlashtirishning ahamiyatini anglab yetadilar va o'zlashtiradilar, atrofdagi narsalar to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytiradilar. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faoliyatining mazmuni xilma-xil bo'ladi va har tomonlama rivojlanish imkoniyatlari kengayadi. O'yin hayolni rivojlantirishga, atrofdagi voqelik, odamlar mehnati to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtirishga, shaxsning jamoachilik xususiyatlarini shakllantirishga ko'maklashadi.

Muntazam mehnat topshiriqlari o'z faoliyatini jamoat manfaatlariga Bo'ysundirish, ijtimoiy foyda kelishiga amal kilish, mehnatning umumiy natijalaridan quvonish ko'nikmalarini tarbiyalaydi va rivojlantiradi. Mashg'ulotlardagi eng oddiy o'quv faoliyati atrofdagi tabiat, ijtimoiy turmush, odamlar haqidagi bilimlarni o'zlashtirishga, shuningdek aqliy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Agar 1-3 yoshda ta'lim paytida bolalarning e'tibori tabiat, odamlar xayotidagi anik faktlar va hodisalarga qaratilsa, 5-6 yoshli bolalarga ta'lim berish muhim aloqalar va munosabatlarni o'zlashtirishga va aloqalarni umumlashtirishga hamda eng oddiy tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi, bu esa bolalarda tushunish tafakkurining rivojlanishiga olib keladi. O'zlashtirilgan bilimlar va rivojlangan aqliy qobiliyatlarni bolalar xilma-xil o'yinlarda va mehnatda qo'llaydilar. Bularning hammasi bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir etadi, unda faoliyatning yangi mazmuniga qiziqishni shakllantiradi.



Maktabgacha yosh davridagi ehtiyojlar, his-tuyg'ular, sabablar, maqsadlarni tarbiyalash va rivojlantirish shu darajaga yetadiki, u bolaga maktabdagi muntazam o'qishga o'tish imkonini beradi. Kichik maktab yoshida asosiy jarayon o'qish bo'lib qoladi va uni bolalar ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyat sifatida tushunadilar. Bolaning jamiyatdagi yangi mavqei o'z xatti-harakatini va tengdoshlarining xatti-harakatini o'zgacha nuqtai nazardan maktab o'quvchisi nuqtai nazaridan baholashni shart qilib qo'yadi. Bola faollik, ijodkorlik ko'rsatib, kattalarning uning xulq-atvoriga va faoliyatiga qo'yayotgan tobora murakkablashib borayotgan talablarini bajarishga intiladi.

Har bir faoliyat turining mazmuni va tuzilishining ijtimoiy-tarixiy tabiati har bir yosh avlodga obyektiv ravishda berilgan bo'ladi. Odamlarning ishlab chiqarish qurollarida, bilimlarda, san'atda, ahloqda va hokozalarda jamlangan sermahsul faoliyati natijalari birgalikdagi faoliyatda va muloqotda bo'lgan paytda tarbiya va ta'lim vositasida katta avloddan kichiklarga beriladi. Odam shaxsining ijtimoiy tabiati ana shunday shakllanadi. Tarbiya tarbiyalanuvchida kuchli faoliyat ehtiyojini uyg'otib, yangi xulq-atvor sifatlarini shakllantirishga yordam bergandagi-na kutilgan natijalarga erishadi.

Bolani tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatning yetakchilik roli to'g'risidagi qoidadan kelib chiqib, uning o'quv-tarbiya muassasalaridagi va

oiladagi hayotini u faoliyatning xil-xil turlariga boy bo'ladigan qilib uyushtirish zarur. Bunda ularga mazmuni boyitishga, yangi ko'nikmalarni o'zlashtirishga, mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan rahbarlik ta'minlanishi kerak. Tarbiya va ta'limning mazmuni, vositalari, metodlari bolalarning rivojlanish jarayoni, ularning yoshi bilan izohlanadi. Jumladan, kichik yoshdagi bolalar bilan ish olib borganda ularning mustaqil hayotga butunlay moslashmaganligi hisobga olinadi.

Keyingi yosh guruhlarida maktabgacha yoshdagi bolaning mustaqilligi va moslashishi ancha oshib boradi, shunga muvofiq tarzda ta'lim-tarbiyaviy ishlarning vazifalari, mazmuni, vositalari va metodlari o'zgaradi. Bolaning maktabgacha yoshning oxiriga borib erishgan rivojlanish darajasi ular bilan olib boriladigan tarbiya-ta'lim ishini murakkablashtirish imkonini beradi.

Tarbiya vazifalari mazmuni, metodlarini yoshga qarab tabaqalashtirish hozirgi fanda qabul qilingan odam hayotini davrlarga bo'lishga tayanadi. Bir tomondan, vaqtni orqaga qaytarib bo'lmazligi, odam umrining qancha davom etishi va ikkinchi tomondan, tarbiya va ta'lim sitsemasi bilan izoxlanadigan ruhiy rivojlanishning olg'a harakat qilishi yoshga qarab tabaqalashtirishning asosi hisoblanadi. Yosh davrlari — odam rivojlanishining majburiy bosqichlaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'RQning 595-sonli “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi qonuni. 16.12.2019 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 802-sonli “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning DAVLAT STANDARTI” 22.12.2020 yil.
3. F.R. Qodirova, Sh.Q. Toshpo'latova, N.M. Qayumova, M.N.A'zamova “ Maktabgacha pedagogika” T-2019 132-133 b
4. Asqarova.D.Q. “Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi”T-2020 13-17b
5. Qurbonova. Z.I.The Importance of the use of Educational Technologies Aimed at the Development of the Child's Personality in Preschool Education.” nomli Ilmiy maqola - International Journal of Culture and Modernity” ISSN 2697-2131, Volume 11 47,48,49 b. Испания 2021
6. Ш.Мирзаева З.И.Курбанова “Арт-педагогические технологии коррекции страхов у детей дошкольного возраста” SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 7 | 2021.1206-1212b.
7. Mirzayeva D.Sh. Nasimova N.Q. and Hakimova N.S “Арт –педагогика для дошкольников”. Scientific progress 2.7(2021) 1201-1205



8. Raxmonova G.S.Hakimova.N.S. O'quvchilarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda interfaol metodlardan foydalanish// Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.-2022.-T.2.- C.67-72

9. Mamedova M. M. Ta'lim sifatini oshirishda axborot texnologiyalarining o'rni //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 7. – C. 1230-1234.

10. Xusanovich, M. O. (2024, November). MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TADBIRKORLIK MADANIYATIGA O'RGATISH. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 3, No. 25, pp. 16-18).

11. Mirzayev, O. (2023). ERTAK-TERAPIYASI VA TADBIRKORLIK MADANIYATI ELEMENTLARINING INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHNING METODIK TIZIMI. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(25), 92-94. <https://orcid.org/0009-0004-8134-3925> ORCID

15. Khusanovich, T. M. O. DEVELOPING STEAM COMPETENCIES IN OLDER PRESCHOOLERS.

16. Iminova, D., & Bozarova, M. (2024). INKLYUZIV TA'LIMNING MAQSADI VA VAZIFALARI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 1(4), 761-762.

17. Iminova, D. N. (2021). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA MAKTAB O'RTASIDAGI HAMKORLIKNING AHAMIYATI. *Science and Education*, 2(1), 301-303.

10. Mominova, G. (2023). Maktabgacha talim tashkilotlari tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari. *Science and innovation in the education system*, 2(2), 122-126.

11. Gulhayo, M. (2023). Technologies for development of general competences of preschool teachers. *Science and Innovation*, 2(4), 632-634.

12. Iminova D. (2024). Innovativ loyihalar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish motivatsiyasini rivojlantirishning mazmuni. *Экономика и социум*, (5-2 (120)), 266-274.

13. Iminova, D. N. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati. *Science and Education*, 2(1), 301-303.